

O'QUVCHI YOSHLARNI KASB TANLASHDA TO'G'RI TANLOV QABUL QILISHLARDA PSIXOLOGNING O'RNI

*Namangan viloyati Namangan shaxar
1-IDUM amalyotchi psixologlari
Tursunova Gulhayo Dilmurodovna,
Sardorova Qunduz Bahodirovna,
Siddiqova Nargiza Ganiyevna*

Kalit so'zlar : Ijtimoiy – iqtisodiy, Maqsadga erishish, pedagogik va psixologik faoliyat, kasbning jamiyatdagi nufuzi, maktab, psixologik qoqnuniyat, kasb-hunarga yo'naltirish, professiogramma.

Keys word : Socio – economic, achive the goal, pedagogical and psychological activity, the prestige of the profession in society, psychological lews, career guidance, professionogram.

Annotatsiya : O'zbekistonda kechayotgan bugungi keng ko'lami ijtimoiy – iqtisodiy islohatlar, beto'xtov shakllanayotgan bozor munosabatlari, fan, texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi unga javob bera oluvchi jamiyat va shaxs ehtiyojlarining o'zaro uzviy mutanosibligiga erishish uchun ham maktab o'quvchi yoshlari yani o'smirlarda kasb tanlashga nisbatan faol – ijobiy munosabat motivasiyasi tizimini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta'sirini kuchaytirish lozim bo'ladi.

Xozirda kunda umumta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan kasbga yo'naltirish ishlarining yakuniy bosqichida bitiruvchilarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tayyorlov ishlariga tavsiyalar berilmoqda. Bu esa o'quvchilarning kelajak kasblarini tanlashga, o'z kelajaklarini oldindan ko'ra olishga yordam beradi.



Xalq ta’limi vaziri “Toshkent yoshlar forumi – 2020”da muvaffaqiyatga erishish bo’yicha yoshlarga o’z tavsiyalarini berdi va ularni kelajak hayotlariga mufaqfiyat tiladi. U o’z so’zida o’quvchilarga :

- O’qigan, ko’rgan, eshitgan narsalaringiz haqida fikrlang, tanqidiy yondashing.
- Fikrlaringizdan hosil bo’lgan qiziqishlar ro’yxatini tuzing.
- Qiziqishlaringizni imkoniyatlaringiz bo’yicha saralang.
- Eng muhim hisoblagan yo’nali-shingizda erishishni istagan maqsadingizni qo’ying.
- Maqsadga erishish uchun bosqich va muddatlarni o’zingiz uchun belgilang.
- Xato qilishdan va avval belgila-ganlaringizni o’zgartirishdan qo’rqmang.

Keltirib o’tilgan tavsiyalarni o’quvchi yoshlarimiz anglagan holda o’zlari qiziqan va xoxlagan kasblarini aniqlab olishlari , shu kasb bo’yicha egalashi mumkin bo’lgan mahoratlari haqida fikr yurutishlari mumkin.

Xar qanday kishi o’z hayotini yaxshilashi uchun o’z oldida turli maqsadlari qo’yadi: Birinchidan ; Buni xoxlashi . Ikkinchidan ; bunga o’zi tayyor bo’lishi va yana , bunga erishish uchun harakat qilishi kerak .

O’zbekistonda kechayotgan bugungi keng ko’lamli ijtimoiy – iqtisodiy islohatlar, beto’xtov shakllanayotgan bozor munosabatlari, fan, texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi unga javob bera oluvchi jamiyat va shaxs ehtiyojlarining o’zaro uzviy mutanosibligiga erishish uchun ham maktab o’quvchi yoshlari yani o’smirlarda kasb tanlashga nisbatan faol – ijobiy munosabat motivasiyasi tizimini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta’sirini kuchaytirish lozim bo’ladi.

Zero,biz bu kabi isloxotlarni amalga oshirishimizda, ta’lim tarbiya jarayonida butun dunyoga ma’lum va mashhur bo’lgan Sharq allomalari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug’bek, Navoiy, Abdulla Avloniylarning asarlarida ta’kidlanganidek, o’rta asrlardayoq, ayniqsa, bizning hududimizda diniy maktablar, madrasalarga tolibi ilmlarni tanlab olish, ularning aqliy taraqqiyot darajasini, birlamchi bilim va malakalarini, kasb yoki san’atning alohida turiga moyilligi hamda ichki munosabatining namoyon etilishini hisobga olgan holda amalga oshirgan pedagogik va psixologik faoliyatlarini namuna qilib olishimiz mumkin. .

Har qanday o’smir , o’smirlik yoshida kasb tanlash yetakchi faoliyat sanaladi. O’quvchi – yoshlar ertangi taqdiri haqida o’ylashga majbur. Chunki ular oldida jiddiy hayotiy masala - kasb – hunar tanlash muammosi turadi. Ular kasb – hunar sohalarining ahamiyatli jihatlariga alohida e’tibor qarata boshlaydilar. Shu bois ham, ularning yoshlik davridagi o’zgarishlar kasb tanlash va kasbning ahamiyatiga chuqur nazar solishga olib keladi. Bu esa ularning hayotda o’z o’rnini topish majburiyatini

ko‘ndalang qo‘yadi. Kasb tanlash va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni bir necha turga ajratish mumkin. Ko‘pincha kasb tanlash motivlari shakllanishida biz psixologlar quyudagi mativlarga o‘z etiborimizni qaratishimiz lozim:

- ota – ona (da‘vati, kasb – kori, istak - xohishi);
- o‘qituvchi;
- o‘rtoqlar;
- tasodifiy tanlash;
- kasb – hunar to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotga egalik;
- kasbga qiziqish;
- mashhur kishilar;
- kasbning jamiyatdagi nufuzi;
- kasb egalariga xos xususiyatlarni o‘zida kuzatish va boshqalar.

Psixologlar o‘ziga avvalo “Xo‘sh, qaysi bir motiv asosida o‘smir yoki o‘spirinlar tanlangan kasb ancha samarali egallanadi” degan savolni berishlari lozim. Chunki bugungi kunda kasb – hunar-kollejlari va boshqa ta‘lim muassasalarida mutaxassis bo‘lish uchun tahsil olayotgan ko‘plab yoshlarning biror kasb – hunarni mukammal egallash borasida aniq maqsadi yo‘q. Holbuki, aniq maqsad faoliyatning ijobiy yakunlanishi mezonlaridan biri. Aniq maqsad faoliyat yo‘nalishining to‘g‘riligini ko‘rsatadi. Aniq maqsad yoshlarni hayotda adashishdan ogoh etadi. Maqsad asosida faoliyat yuritganlar maqsadsizlarga qaraganda ancha yaxshi hayot kechirganini ko‘rish mumkin.

O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoni tashkiliy jixatdan ko‘proq pedagogik xarakterga ega bo‘lsada, u mazmunan psixologik mohiyatga ga.. Chunki barcha pedagogik tadbirlar (Tashqi ta‘sir) o‘quvchining kasbiy o‘zligini anglash va ongli kasb tanlashi uchun xizmat qiladi, uning asbiy o‘zligini anglash jarayonlari (Ichi ta‘sir, kechinmalar moyilliklar) esa psixologik qoqnuniyatlar asosida kechadi.

Demak, bu jarayon eng avvalo kasbiy o‘zlikni anglash va o‘z kasbini tanlashga yo‘naltirilgan bolishi kerak

Bu kabi tavsiyalar o‘quvchilarning moyillik, qiziqish va qobilyatlarini uzluksiz psixologik-pedagogik tashxiz qilish xulosalariga asoslab berilgan bo‘lsada, bitiruvchilarning ko‘p qismi obektiv, subektiv sabablarga ko‘ra, kollej va litsey ni tanlashda kasbiy mativlarni o‘zgartiradilar. O‘quvchilarni ongli kasb-hunar tanlashga tayyorlash ishlarining samaradorligiga tasir etuvchi yana bir omilga o‘z etiborimizni ko‘proq qaratishni tavsiya etgan bo‘lar edim.

Ularni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoniga interfaol psixologik, pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etish va kasbiy psixologik-pedagogik tashxisning uzluksizligiga erishishdir. Biz quyudagi psixologik trening va pedagogic

texnologiyalarni qo'llashda hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'ysakgina o'quvchi yoshlarni qiziqish va qobilyatlariga mos kasb-hunar tanlashlariga erishishimiz mumkin:

Kasblar professiogrammasini tuzush, Tanishish Men kim? Erkalab aytiladigan ism, Mendagi kuchli xususiyatlar, Avtoportret, Men kimman?, Psixologik portret, FSMU, BBB, Ta'surot xatlari metodikalari. “Hayotiy qadriyatlarni o'rganish bo'yisha anketa-so'rovnomasi” TEMPERAMENT VA KASBNI TANLASH anketa so'rovnomalari. Bu kabi trening va texnologiyalar o'quvchilarni kasb-hunar tanlashlaridagi shaxsiy tanlovlariga bevosita tasir ko'rsatib kelajak kasblarini tanlashga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustaqil O'zbekistonning yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi konsepsiyasi. Toshkent. O'qituvchi. 1994
2. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг “Олий таълимга оид меъёрий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 2000 йил 22 сентябр 251 сонли буйруғи.
3. Дружинина В. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Бурлачук Ф. Психодиагностика. “Питер”, 2002.
5. www.psychology.net.ru
6. [Ўсмирларда Меъёрдан Хулқий Оғиш Холатларини Коррекциялаш Жараёнларида Хуқуқий Саводхонликнинг Ахамияти](#)
7. Дс Кизи Ахмедова, Ао Қизи Камолова - Eurasian Journal Of Academic Research, 2022
8. [using case stade technology in legal education for teenagers](#)
MY Nishonova, AO Kamolova - Экономика и социум, 2021